NEMIS TARIXSHUNOSLIGIDA EFTALIYLAR VA SOSONIYLAR MUNOSABATLARINING TADQIQ ETILISHI

Ergasheva Diloromxon
Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti
Telefon: +998911212267, E-mail: dilorommirzayeva2gmail.com

Annotatsiya
Ushbu maqolada yurtimizning ilk o‘rta asrlardagi tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va qudratli davlat tuza olgan eftaliylarning Erondagi sosoniylar bilan bo‘lgan munosabatlari va ular o‘rtasidagi urushlarning sabablari nemis tilida yaratilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib o‘rganib chiqiladi va yakuniy xulosaga kelinadi. Aynan Eron tarixiga qiziqish nemis tarixshunosligida yuqori o‘rinda turadi va biz bunday tadqiqotlar orqali o‘z tariximizdagi muammoli bo‘lgan savollarga javob topishimiz ham mumkin.

Kalit so‘zlar: *Eftaliylar, sosoniylar, O‘rta Osiyo, Frans Althaym, Teodor Noldeke, Bahrom V, Pero‘z I, Yazdigird II, Kubod, Faganish, diplomatik munosabatlar.*

KIRISH

O‘z o‘rnida aytib o‘tish joizki, yurtimiz tarixidagi nisbatan kam o‘rganilgan davr bu ilk o‘rta asrlar tarixidir. Bu davrda yurtimizda birin-ketin xioniylar, kidariylar, eftaliylar va Turk xoqonligi hukmronlik qildi. Ular dastlab ko‘chmanchi qabilalar sifatida kirib kelgan bo‘lsalar-da, bu yerdagi mahalliy xalq bilan ziddiyatga bormadilar. Buni tarixiy sharoit nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, davr talabi shuni taqozo qildi, ya'ni mahalliy xalqqa bu paytda birlashtiruvchi kuch kerak edi, bu davrda O‘rta Osiyo hududi mayda mulklarga bo‘linib ketgan edi. Eftaliylarning kirib kelishida ham shunday tarixiy sharoit yetilib turgan edi va ular mayda mulklarni birlashtirishga harakat qildilar, o‘z davrining qudratli imperiyalariga tenglasha oladigan davlat tuzdilar. Ularning doimiy raqobatdoshi bu Eron sosoniylari edi. Ular o‘rtasida diplomatik munosabatlar ham, o‘zaro urushlar ham bo‘lgan, bularni manbalar o‘zida aks ettiradi, ammo nima sababdan yaxshi munosabatlar ko‘pincha urushlarga olib borganini tadqiq etish va sabablarini aniqlash kerak.

METODLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ushbu tadqiqotni olib borishda asosan nemis tilidagi tadqiqotlardan foydalanildi va ulardagi ma'lumotlar o‘zaro qigoslanib, yakuniy xulosa chiqarildi. Nemis tarixshunosligida eftaliylar va sosoniylar o‘rtasidagi mhnosabatlarni yoritishga bag‘ishlangan tadqiqotlar bir qanchani tashkil etadi. Ulardan eng asosiylari Frans Althaymning “Xunnlar tarixi”[2] nomli to‘rt qismli kitobining “Eftaliylar Eronda” deb nomlangan 2-qismida va Teodor Noldekening “Sosoniylar davrida forslar va arablar tarixi”[6] nomli asarida eftaliylar va sosoniylar o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Noldekening tadqiqotida sosoniylar tarixi chuqur tadqiq etilgan va asarning 90-167-betlarida eftaliylar tarixi haqida so‘z boradi. Eftaliylarning sosoniylar bilan bo‘lgan munosabatini har tomonlama o‘rganishda ushbu asar qo‘l keladi. Bundan tashqari Nikolaus Shindel[5], Valter Pol[9], Maykl Alram[3], Maykl Ferdinandi[4], Robert Gobl[7], Daniel Potts[1], Timo Stikler[8] va Vezendonk**[10]**larning adabiyotlari va

monografiyalarida ham eftaliylar va sosoniylar munosabatlari aks etgan bo‘lib ularni o‘zaro qiyoslash usuli orqali tahlil qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI:

Eftaliylar V asrning 2-yarmida Eronning shimoli-sharqiy chegarasi hududida bosqinlarning yangi to‘lqini sifatida paydo bo‘lgan. Fors shohi Bahrom V (421-438) eftaliylar bilan allaqachon jang qilgan va g‘alaba qozongan deb taxmin qilinadi va shu sababdan ham eftaliylarning birinchi marta nomi tilga olinishi 425-yildan boshlanishi mumkin. T.Noldekening asarlarida eftaliylar hukmdorlarining aynan Bahrom V bilan bo‘lgan munosabatlari ham bayon etilgan. Asar asosan arab manbalariga asoslanib yozilgani uchun ham unda eftaliylar nomi haitallar so‘zi orqali ifodalanadi. Asarda Bahrom V va eftaliylar hukmdori o‘rtasidagi jang haqida so‘z boradi *[6: 119-b]*. Biroq Bahrom V tomonidan mag‘lub qilingan bosqinchilarni kimlar bo‘lganini aniq ayta olish juda muammoli, chunki bu davrga tegishli manbalarda bu borada aniq bayonotlar berilmagan va voqealar xronologiyasini qayta tiklash qiyin masala bo‘lib qolmoqda *[9: 104-b]*, *[8: 25-b]*. Bu fikrlar nemis tarixshunoslaridan bo‘lmish Valter Pol va Timo Stiklerlarning asarlarida ham bir xil holatda keltirilgan. Boshqa tarixshunoslar Daniel Potts va Nikolaus Shindellarning fikriga ko‘ra esa, Bahrom V hali ham xioniylar yoki kidariylarga qarshi kurashib kelgan *[1: 365-b]*, *[5: 127-b]*. Bundan ko‘rinib turibdiki, XIX asrda yaratilgan adabiyotlar keyinchalik tahlil qilinib, yangi yondashuvlar bilan tadqiqotlar olib borilgan. Shu sababli ham adabiyotlardagi ma'lumotlarni o‘zaro qiyoslab o‘rganish joizdir. Yana boshqa adabiyotlarda quyidagi fikrlar ilgari suriladi:

Ehtimol eftaliylar keyinroq, V asrning 70-yillaridan keyin kirib kelgan, chunki Pero‘z I 460-yillarda kidariylarga qarshi janglar qilgan, eftaliylar bilan esa 470-yillarda kurashgan *[2: 138-b]*. Frans Althaym ushbu ma’lumotlarni vizantiya va arman manbalariga asoslanib berganini o‘z asarida keltirib o‘tadi.

Ammo eftaliylar va kidariylarni bir guruhga kiritilgan tadqiqotlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Numizmat olim Robert Gobl ularni “Eron xunnlari” nomi bilan mashhur bo‘lgan guruhga kiritadi *[7: 138-b]*. Biroq Goblning bu sof numizmatik tasnifi, albatta, o‘zgartirilishi mumkin, chunki u yozma manbalarni chetlab o‘tgan, va hatto xioniylar nomi uning ishida uchramaydi *[8: 29-b]*, – deydi Timo Stickler o‘z asarida. Eftaliylarning Sosoniylar saltanatiga qayta-qayta yurish qilib, yuqorida tilga olingan sosoniylar shohi Pero‘z I ni 484-yilda ular tomonidan o‘ldirilishi yozma manbalarda o‘z aksini topgan. Demak bundan kelib chiqadiki, eftaliylar haqidagi aniqroq ma’lumotlarni Althaym va Noldekelarning asarlaridan olishimiz mumkin ekan.

Fors manbalarida 442-yildan boshlab Yazdigird II (435 – 457) bilan jang qilgan “fetal qabilalari” sifatida tilga olinadi, deydi arman tarixchisi Yelisey Vardaped. 453-yilda Yazdigird II eftaliylar yoki ularga aloqador guruhlar bilan aloqa o‘rnatish uchun o‘z saroyini sharqqa ko‘chiradi. 458-yilda eftaliylar podshosi Sosoniylar imperatori Pero‘z I ga ukasidan Fors taxtini tortib olishga yordam beradi. Buning evaziga esa Pero‘z eftaliylarga kidariylarni yo‘q qilishda yordam bergan bo‘lishlari mumkin***[3: 48-b]***. 467-yilda ular kidariylarni mag‘lub etishadi va kidariylar Gandharada panoh topishga majbur bo‘lishadi. Demak, eftaliylar kezi kelganda forslarga taxt uchun kurashlarda ham yordam bergan, ammo ana shu Peroz I ning o‘zi ham keyinchalik taxtni egallagandan so‘ng eftaliylarga qarshi urush boshlaydi. Bu esa munosabatlarni chigallashtiradi.

Eftaliylar davlatining tashkil topishi Sharqdagi sosoniylarning tashqi siyosiy ta’limotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. 428-yilda eftaliylar o‘zlarining harbiy va siyosiy ta’sirini mintaqada kengaytirish maqsadida Sosoniylar Eroniga hujum qildilar, ammo mag‘lubiyatga uchradilar va tinchlik shartnomasini tuzishga majbur bo‘ldilar, unga ko‘ra urushayotgan tomonlar o‘rtasidagi chegaralar belgilandi. Eftaliylarning sosoniylar bilan bu urushi IX – XI asrlarga oid bir qator arab va fors tilidagi manbalardan dalolat beradi. Bu ma’lumotlar (kichik tafovutlar bilan) quyidagilarni aniqlashtirish imkonini beradi: birinchidan, shoh Bahrom V (421 – 439) boshchiligidagi sosoniy qo‘shinlarining Marvga, so‘ngra go‘yoki Buxoroga harakatlanish yo‘li; ikkinchidan, Bahrom V ning sharqiy mudofaa yurishining geografik hududi, u ko‘p jihatdan Kayxusravning Afrosiyob bilan urushidagi yurishlar maydoniga o‘xshash; uchinchidan, O‘rta Osiyo Mesopotamiya yarim mustaqil mulklarining Sosoniylar Eroniga bog‘liqlik darajasi; to‘rtinchidan, Afg‘oniston va O‘rta Osiyoning salmoqli qismini (Balx, Garjiston, Xuttalyon, Chag‘oniyon va Buxoro) qamrab olgan eftaliylarning siyosiy hokimiyati tarqalgan hududlar ***[5: 23-b]***. Bobda Eronning shimoli-sharqiy chegarasida eftaliylarga qarshi kurash sosoniy podshohlari – Yazdigard II (439 – 457) va Pero‘z (459 – 484)larning asosiy vazifasi bo‘lganligi qayd etilgan. Arman-suriya manbalariga ko‘ra, Yazdigard II shimoli-sharqiy yo‘nalishda uchta yurish (442 – 449, 450 – 451, 453 – 454) amalga oshirib, sosoniylar chegaralarini eftaliylar hujumidan himoya qilishga uringan. Yazdigard II ning birinchi yurishi Janubiy Kaspiy dengizi (Jurjon shahri ulushi bilan), ikkinchisi Xuroson (Toliqon ulushi bilan), uchinchisi Shimoliy Baqtriya-Toxariston hududlarini qamrab oldi. Xurosonga qarshi yurish yanada muvaffaqiyatli hisoblanadi, chunki bundan keyin Yazdigard II Kushonshahrda sosoniylarning siyosiy hokimiyatini tikladi va sosoniylar taxti vorislari orasidan hokimlarni tayinlash amaliyotini tikladi.

Eftaliylar va sosoniylar o‘rtaisdagi janglar Pero‘z (459 – 484) davrida avj oladi. Yazdigird II vafotidan so‘ng 457-yilda uning ikki o‘g‘li Xormuzd va ukasi Pero‘z o‘rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Xormuzd taxtni egallagach Pero‘z eftaliylar davlatiga qochib ketadi va ulardan taxtni egallashda yordam berishlariga umid qiladi. Firdavsiy ma’lumotlariga ko‘ra eftaliy shohi Faganish Pero‘zga Termiz va Vashgird (Vaxsh va Kofirnihon oralig‘idagi shahar) shahri evaziga 30 ming harbiy qo‘shin beradi *[6: 124-b]*. Eftaliylar yordami bilan Pero‘z o‘z akasini 459-yilda mag‘lub etadi va shohlik taxtini egallaydi. Shu yili Pero‘z eftaliy shohi Vaxshunvor bilan ittifoqchilik shartnomasini tuzadi.

Prokopiy Kesarskiy ma’lumotiga ko‘ra Pero‘z eftaliylarga ularning ayyorona va aqlan o‘ylab topgan rejalari asosida asirlikka tushib qoladi. Eftaliylar shohi Pero‘zga shunday badal to‘lashini aytadiki uni Pero‘z xursandlik bilan qabul qiladi. Pero‘zni ozod etish sharti bu – juda katta miqdordagi oltin edi. Talab etilgan to‘lov Vizantiya imperatori Zenon tomonidan beriladi. Chunki sosoniylar Kavkazning tog‘li hududlarida sosoniylar qal’a va gornizonlarni qo‘l ostida ushlashi va u yerdan dushmanni o‘tkazib yubormaslik sharti bilan Vizantiya imperiyasi ularga subsidiya to‘lashi lozim bo‘lgan *[2: 234-b]*.

Pero‘z hukmronligi tavsifi bilan bog‘liq holda, arman tilida (Lazar Parpetsiyning “xeptali”) va arab va fors manbalarida (at-Tabariy, Balamiy, Firdavsiy) eftaliylar haqida birinchi eslatmalar ham mavjud. Manbalarga ko‘ra, V asr o‘rtalarida. Xaytal mamlakati Gurjiston, Toxariston, Balx, Badaxshon, Xuttalon, Chag‘oniyon, Termiz va Buxoroni

qamrab olgan. V – XI asrlar tarixnavislik an’anasi. Pero‘zning 60 – 80-yillardagi sosoniylar Eronining «Sharqiy siyosati»ning mohiyatini belgilab bergan shiddatli harbiy yurishlarini batafsil bayon etadi. VI asr Pero‘zning sharqiy yurishlari haqidagi hikoyatlarda uning eftaliylarga qarshi uchta harbiy yurishi umumlashtiriladi. 474 – 475-yillarda Fors qo‘shinlarining mag‘lubiyati bilan nishonlangan birinchisidan so‘ng, Sosoniylar va Eftaliylar o‘rtasida davlat chegaralari to‘g‘risida tinchlik shartnomasi tuzildi: sosoniylar kelajakda o‘rnatilgan davlatlararo chegaralarni buzmaslikka va’da berishdi. Ikkinchisida, 479 – 480-yillarda, fors qo‘shinlari davlatlararo chegarani buzib, navbatdagi mag‘lubiyatga uchragach, shoh Pero‘z o‘g‘li Kubodni eftaliylar qo‘liga garovda qoldirishga majbur bo‘ldi [6: 118-b].

474-yildan boshlab Sosoniylar imperiyasi katta soliq to‘lashi munosabati bilan eftaliylar tanga zarb qilishni boshlaydilar va tanganing dizayni sifatida qanotli, yarim oyli tasvirlangan hukmdor timsolini oladilar [7: 146-b]. Shu o‘rinda numizmatik tadqiqotlarga ham e’tibor qaratish zarur. Eftaliylar sosoniylarning kumush tangalari kirib kelishidan foydalanib o‘zlarining tangalarini rivojlantirmaganlar: ular yo sosoniylarniki bilan bir xil naqshli tangalar zarb qilganlar yoki oddiygina sosoniylar tangalariga o‘z belgilari bilan qarama-qarshi belgi qo‘yganlar. Ular o‘z hukmdorlarining ismini yozmaganlar, Bu holat esa o‘zlaridan oldingi Alxon xunnlari va kidariylarning odatlariga zid. Istisno holatda, tangalarnig bir turi sosoniylar dizaynidan chetga chiqib, qo‘lida ichimlik kosasi tutgan eftaliy shahzodasining tasvirini ko‘rsatadi.

T.Noldekening ta’kidlashicha Kubod eftaliylar bilan ittifoqni buzib ularga qarshi 503-yildan 513-yilgacha davom etgan urush olib boradi [6: 126-b]. Shu tariqa eftaliylar turklar va sosoniylarning ta'siriga tushib qoladi va oxirgi jangda mag‘lub bo‘lgach Shimoliy Hindistonga ketib, o‘sha yerda o‘z davlatlarini tuzadilar, hjnd manbalarida ham eftaliylar “huna"lar nomi bilan beriladi va ularning hukmronligi haqidagi ma'lumotlar aks etadi.

Natijalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, eftaliylarning sosoniylar bilan olib borgan siyosati nihoyatda muammoli kechgan, goh sosoniy shahzodalar taxtni egallash uchun eftaliy hukmdorlardan madad so‘ragan bo‘lsa, goh ularga hiyla ishlatib, urushlarni boshlaganlar. T.Noldeke buni arman manbalari orqali izohlaydi. Ammo xolislik tamoyili bilan yondashadigan bo‘lsak, armanlar eftaliylar bilan nihoyatda yaxshi munosabatda bo‘lganligini va ular o‘rtasidagi aloqalar uzoq vaqtgacha saqlanib qolganiniga ham e’tibor berish lozim. Shu sababdan ham bu masalani keng doirada, manbalar va adabiyotlardagi ma’lumotlarni qiyoslagan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Eftaliylar davlati tashqi siyosati masalasi nemis tarixshunosligida chuqurroq o‘rganilgan, ya’ni ular asosiy e’tiborni ularning kelib chiqishi, ko‘chishi, davlat boshqaruvi va tashqi siyosatiga qaratganlar. Tashqi siyosatni, asosan, Eron sosoniylari tarixi bilan bog‘lab o‘rganilgan, chunki bu boradagi izlanishlar va manbalar salmoqlidir. Shu sababdan ham o‘rganilgan adabiyotlarning asosiy qismi Eron sosoniylari tarixiga bag‘ishlanadi. Bu orqali Eftaliylar tarixining hali noma’lum bo‘lgan jihatlarini tadqiq qilish va xulosalashga erishish mumkin. Eron sosoniylarining eftaliylar diplomatiyasiga ko‘p hollarda qarshi chiqqanlar, o‘rtada tuzilgan shartnomalarga amal qilmaganlar, agar amal qilganlarida balki eftaliylar ta'siriga tushib

qolmagan bo‘lardilar. Demak, nemis tarixshunosligi orqali eftaliylar va sosoniylar o‘rtasidagi munosabatlarga oz bo‘lsa-da oydinlik kiritdik, deb ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Daniel T. Potts: Nomadism in Iran. From Antiquity to the Modern Era. – Oxford u.a. 2014, 134 p.
2. Franz Altheim. Geschichte der Hunnen. Band 2: Die Hephthaliten in Iran. – Berlin, 1989. 342 s.
3. Michael Alram: Das Antlitz des Fremden. Die Münzeprägungen der Hunnen und Westtürken in Zentralasien und Indien. Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften. – Wien, 2016. 75 s.
4. Michael de Ferdinandy, Neue Monographien über die Geschichte der Hunnen. – München. 2010. 28 s.
5. Nikolaus Schindel: Wahram V. Band. 1. – Wien, 2004. 45 s.
6. Nöldeke. Geschichte der Perser und Araber zur Zeit der Sasaniden. Aus der arabischen Chronik des Tabari ubersetzt. – Leyden, 1879. 238 s.
7. Robert Göbl. Dokumente zur Geschichte der Iranischen Hunnen und Indien. – Wiesbaden, 1967. 178 s.
8. Timo Stickler: Die Hunnen. – München, 2007. 38 p.
9. Walter Pohl. Die Völkerwanderung. 2. Band. – Stuttgart, 2005. 248 s.
10. Wesendonk O.G., Kusan, Chioniten und Hephthaliten, Buch – Mikrofiche, Verlag: Zug: IDC, 1971. 34 s.